

## SOTSILOGIYANING OBYEKTI VA PREDMETI

**Xasanova Dilobarxon Abdumannob qizi**

*Farg'ona Davlat Universiteti*

*Tarix fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi*

*21,119- guruh 2-bosqich talabasi*

**Anotatsiya;** *Ijtimoiy gumanitar fanlar tizimiga kiruvchi sotsiologiya jamiyatni turli jabhalarda o'rganadi. Sotsiologiya-insonning ijtimoiy turmushini o'rganish, guruh va jamiyatlarni o'rganishdir. Uning kelib chiqishi, obyekt va predmeti nima ekanligi haqida ushbu maqolada gap boradi.*

**Kalitso'zlar;** *Sotsiologiya, tendentsiya, pozitiv, obyekt, predmet, mikrosotsiologiya, makro sotsiologiya, subyekt, fundamental, hodisa, tadqiqot.*

Bilamiz, Sotsiologiya fanining shakllanish jarayoni ma'lum bir bilimga ehtiyojini anglashdan boshlanadi. Buning natijasi uchun esa insondan yangi faoliyat shakli talab qilinadi. Sotsiologiyani ilmiy jarayonga olib chiqilishi O. Kont nomi bilan bog'liq. U yangi fan 'Sotsiologiya' deb nomladi. XIX asrning 30-yillarida chop etilgan 'Pozitiv falasafa ruhi' kitobi yangi ijtimoiy fanini paydo bo'lishidan darak beradi. Shundan buyon sotsiologiyaning obyekt va predmeti ta'rif qilish bilan boshlanadi. Obyekt va predmetini aniqlash tadqiqot metodini belgilash, tarixiy taraqqiyot va ma'lum bilimlarga erishish darajasi bilan o'sha fanning mavqeyini belgilab olish mumkin bo'ladi. Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida kechroq paydo bo'lishi, boshqa fanlarga nisbatan yosh bo'lganligidan uning obyekt va subyekt muammosi hozirgi kunda ham eng dolzarb muammodir. Shuning uchun sotsiologiyani yuzdan ortiq ta'rif bor. Uning obyekt va predmetini tushunish uchun sotsiologiyaning klassik asarlariga suyangan holda hozirgi zamon fanining holatini va rivojlanish tendentsiyalarini hisobga olish kerak. Masalan fizikaning obyekt tabiatdagi fizik jarayondir. Kimyo fanining obyekt-tabiatning kimyoviy elementlarini o'zaro munosabatidir. Sotsiologiyaning obyekt insonning turli holatdagi xulq-atvori bo'lsa, uning predmeti esa mehnat, siyosat va boshqa sohalaridagi xulq-atvorlarining mexanizmlarini o'rganishdir. Sotsiologiyaning predmet masalalarini hal qilishda Amerika klassik sotsiologi Floran Znanetskiy alohida o'rin tutadi. Uning Tompson bilan yozgan 'Polsha dehqonlari Yevropa va Amerikada' degan asari sotsiologiyada yangi oqim bo'lgan empirizm sotsiologiyasining boshlanishidan darak berdi. Mana shuning uchun unga empirik maktabning vakili sifatida qaraladi. Biroq, uning g'oyalari, qarashlari bu oqim doirasidagina baholanmaydi. Sotsiologiya maxsus fan sifatida 4 ta muhim sohani o'z ichiga oladi; sotsial faoliyat nazariyasi, sotsial munosabatlar nazariyasi, sotsial-shaxs nazariyasi, sotsial guruh nazariyasi. Sotsiologiya jamiyatda bo'layotgan hamma hodisalar bilan emas, balki faqat faoliyat sistemasini yaratuvchi ongli individ munosabatlari bilan shug'ullanish kerak. Znanetskiy sotsiologiyani nazariy fan sifatida empirik faktlariga asoslanishini ko'rsatib

berdi. Shuning uchun asosan sotsiologiyada fundamental masalalar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot asosida olingan bilimlar analiz qilinadi. Sotsiologlar jamiyatni 2 ta darajada o'rganadi.

1. Mikrosotsiologiya- sotsiologiyada nisbatan katta bo'lmagan ijtimoiy tizimlardagi ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan, alohida olingan hodisalarning mikrodarajadagi jarayonlar bilan aloqasini individlar, kishilar xulq-atvorini shaxslararo o'zaro ta'sirida o'rganadi.

2. Makrosotsiologiya-katta ijtimoiy guruhlar va tizimlarini, jarayonlarini, harakatlarini va hodisalarni, shuningdek, guruhlar faoliyatini uzoq muddat davomida o'rganadi. Bunda asosiy e'tibor har qanday jamiyat mohiyatini tushunishga yordam beruvchi xulq-atvor modeliga qaratiladi. Ushbu model yoki tarkiblar oila, ta'lim, din, iqtisodiy va asosiy tuzum kabi ijtimoiy institutlarni tashkil etadi. Makrosotsiologiya jamiyat turli qismlari orasidagi o'zaro aloqa va ularning o'zgarish dinamikasini o'rganadi. Rus sotsiologi P. Sorokin sotsiologiya fani predmetini quyidagicha aytadi; 'Jamiyat yoki ijtimoiy hodisalardan iborat'. V. Yadov fikricha esa, 'Sotsiologiya jamiyatning bir butun organizm ekanligini, ijtimoiy munosabatlarning bir butunligini o'rganadi. Sotsiolog G. Osipov 'Sotsiologiya' deb nomlangan o'quv qo'llanmasida 'Sotsiologiya ijtimoiy tizimlarning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi to'g'risidagi, umumiy va o'ziga xos ijtimoiy qonun hamda qonuniyatlarning shaxs, ijtimoiy birliklar, sinflar, xalqlar faoliyatida vujudga kelish va amal qilish shakllari to'g'risidagi fan' deb ta'riflagan. O. Kont esa sotsiologiyani 'Jamiyat to'g'risidagi pozitiv fan' deb ta'kidlaydi.

### XULOSA

qilib aytganda, sotsiologiyaning obyektini o'rganish kerak, degan savolga javob bersa, predmeti va obyektining qay jihatlarini o'rganadi, degan savolga javob beradi. Sotsiologiyaning obyektini jamiyatni boshqaruvchi tafakkur qonuniyatlari, ratsional vositalarini tashkil etadi.

Sotsiologiya ijtimoiy hayot jarayonlarini uch bosqichda o'rganadi;

1. aniq-empirik
2. maxsus
3. umumiy

Shunga muvofiq ravishda sotsiologiya empirik, maxsus va umum-sotsiologik tadqiqot jarayonlarini o'z ichiga oladi. Sotsiologiyaning vazifasi jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydigan eng qulay variantlarni, ijtimoiy madaniy modellarini topishdan iborat. Bular jamiyat va insonning o'z-o'zini takomillashtirishga qaratilgan qonuniyatlardir.

Sotsiologiyaning tadqiqot predmeti tarkibiy tuzilish jihatidan quyidagilarni o'z ichiga oladi;

1. Umumiy sotsiologiya-turli sotsial tizimlarda uchrab turadigan ijtimoiy hayotga oid me'yorlarini, bu tizimlarning yashash tarzi va taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlari ega.

2. Maxsus sotsiologiya-ijtimoiy faoliyatning alohida sohalarini ko'p omili tizim sifatida tadqiq etiladi.

3. Bevosita empirik sotsiologik tadqiqotlar-tadqiq qilinayotgan hodisalar, individlar bilan bevosita aloqa va ularning hayot faoliyatlaridagi faktlar to'plami bo'lib, so'roq, kuzatuv, eksperiment va hujjatlarni o'rganish usullarini tajriba yordamida bilishdir. Sotsiologiya fani bizga nima beradi, degan savol paydo bo'lishi mumkin. Bunga quyidagicha javob bera olamiz;

Sotsiologiya katta amaliy ahamiyatga ega. Amaliy sotsial islohatlar bir necha yo'nalishda boradi. Ular, birinchidan, ijtimoiy vazifani to'g'ri tushunish, uni nazorat qilishga imkon beradi; ikkinchidan, sotsiologiya har qanday vaziyatda madaniy qadriyatlar orasidagi tafovutni baholashga sharoit yaratadi, bizning dunyoni madaniy qabul qilish faoliyatimizga baho bera olamiz; to'rtinchidan, sotsiologiya insonning o'z-o'zini bilishiga, o'rganishiga yordam beradi, individlar va guruhlariga o'z sharoitlarini o'zgartirishga imkon yaratadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;**

1. B.NORMURODOV, G.NORMURODOVA 'SOTSILOGIYA TARIXI', 'TAFAKKUR' TOSHKENT-2010.
2. U.N.NURULLAYEVA 'SOTSILOGIYA' TOSHKENT-2010
3. R.UMAROVA 'SOTSILOGIYA' TOSHKENT 'IQTISOD-MOLIYA' 2010
4. B.ALIYEV, M.MULLAJONOVA, B.RAHMONOV, 'SOTSILOGIYA' TOSHKENT-IQTISODIYOT-2011